XALQ DEPUTATLARI YANGIYOʻL SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-yanvar VII-6-2-10-196-K/25 Yangiyoʻl shahar

Yangiyoʻl shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika aerogodeziya markazining 2024-yil 3-iyuldagi Yangiyoʻl shahar hokimiga yuborilgan 01-1187-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Yangiyoʻl shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2024-yil 18-dekabrdagi 113-sonli yigʻilish bayoni maqullansin.

4. Yangiyoʻl shahar maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Yangiyoʻl shahar bilan chegaradosh boʻlgan Yangiyoʻl tumani oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining shahar boʻlimi boshligʻi Sh.Yusupovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Sessiya raisi RAXIMOV SHUXRAT SUNNATOVICH

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 22-yanvardagi
VII-6-2-10-196-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahari ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining

T A V S I F I

Yangiyo‘l shahri va Yangiyo‘l tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, qishloq ichki yo‘li ko‘prigining g‘arb tomonida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°08'37,927", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°03'52,705").*

A dan A gacha Yangiyo‘l tumani yerlari bilan 1-1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1070 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'10,879", sharqiy uzoqlik 69°04'17,813").*

2 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 9 metr masofada kesib o‘tib zovurga tutashadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 43 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda 104 metr, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 900 metr masofani o‘tib ko‘prik bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'35,434", sharqiy uzoqlik 69°04'36,981").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prik bo‘yidan zovurga tutashadi, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1694 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 414 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'03,801", sharqiy uzoqlik 69°05'31,040").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g’arbiy yo‘nalishda 227 metr masofani o‘tib, keyin temir yo‘lni sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 25 metr masofada kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ngra yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda tomorqa chegarasi bo‘ylab 65 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasi bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'55,635", sharqiy uzoqlik 69°05'29,748").*

5 – nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarsi bo’ylab janubiy-g’arbiy yo’nalishda 37 metr, keyin janubiy-sharqiy yo’nalishda 146 metr masofada M-34 avtomobil yo’liga tutashadi va yo’lning g’arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy

yo’nalishda 123 metr masofani o’tib, yo’l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'53,934", sharqiy uzoqlik 69°05'36,398").*

6 – nuqtadan chegara to’g’ri chiziq orqali M-34 avtomobil yo’lini janubiy-sharqiy yo nalishda 36 metr masofada kesib o’tib, keyin Niyozboshi arig’iga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 774 metr masofani o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'28,863", sharqiy uzoqlik 69°05'33,099").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prik bo‘yidan qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofada tomorqa chegarsiga tutashadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 113 metr masofani o‘tib, tomorqa devorida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'24,343", sharqiy uzoqlik 69°05'32,654").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 46 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, keyin Niyozboshi arig‘iga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1389 metr masofani o‘tib, ko‘prik joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°07'39,181", sharqiy uzoqlik 69°05'25,260").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prik bo‘yida Niyozboshi arig‘iga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 257 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 415 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 844 metr masofani o‘tib, M-34 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°07'32,086", sharqiy uzoqlik 69°04'34,673").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i M-34 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1536 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°06′ 48,171", sharqiy uzoqlik 69°04'03,699").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i M-34 avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 319 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 22 metr, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 171 metr, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 128 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°06'34,034", sharqiy uzoqlik 69°04'16,566").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 171 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda devorga o‘tadi va devor bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 31 metr, so‘ngra umumiy janubiy

yoʻnalishda 241 metr masofani oʻtib, tomorqa devorida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°06'26,984", sharqiy uzoqlik 69°04'06,699").*

13 – nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 158 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 69 metr masofada yoʻlga tutashadi, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 281 metr masofani oʻtib, M-34 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°06'35,804", sharqiy uzoqlik 69°03'51,697").*

14 – nuqtadan chegara chizigʻi M-34 avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1542 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°05'51,766", sharqiy uzoqlik 69°03'20,471").*

15 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali yoʻlni gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 19 metr masofada kesib oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va chegara boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 409 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 467 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr masofada temir yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°05'48,538", sharqiy uzoqlik 69°02'42,851").*

16 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 632 metr masofada M-34 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 388 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°05'41,877", sharqiy uzoqlik 69°02'09,160").*

17 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 155 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 46 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 118 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 35 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 99 metr masofani oʻtib, Qoraqulduq arigʻi boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'46,953", sharqiy uzoqlik 69°01'54,799").*

18 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Qoraqulduq arigʻining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 259 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1181 metr masofani oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'18,928", sharqiy uzoqlik 69°01'23,287").*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prikni kesib o‘tib, Jo‘n kanaliga tutashadi va shimoliy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 192 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1387 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'53,085", sharqiy uzoqlik 69°02'05,457").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i kanalni kesib o‘tib, qabriston devoriga tutashadi va devor bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 457 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'05,855", sharqiy uzoqlik 69°01'59,010").*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 699 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 135 metr masofada kanalni kesib o‘tib, Jo‘n kanali bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°07'13,224", sharqiy uzoqlik 69°02'32,057").*

22 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Jo‘n kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 64 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 363 metr maspofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Jo‘n kanali bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°07'22,466", sharqiy uzoqlik 69°02'43,415").*

23 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda Jo‘n kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2231 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°08'11,621", sharqiy uzoqlik 69°03'34,676").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prikdan Jo‘n kanaliga tutashadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1042 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimooliy kenglik 41°08'37,927", sharqiy uzoqlik 69°03'52,705").*

Xalq deputatlari Yangiyo‘l shahar
Kengashining
2025-yil 22-yanvardagi
VII-6-2-10-196-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Yangiyo'l shahari ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik
CHIZMASI

